

NAVOIY VILOYATIDA ONALAR VA BOLALAR SOG'LIG'INI HIMOYA QILISHDA XALQARO ALOQALARNING AHAMIYATI

Xalilova Zebiniso

NavDU Tarix fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Xamraeva Saodat Islomovna

NavDUTarix kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan hamkorlikda Navoiy viloyatida 2007-2008-yillarda sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarning amalga oshirilishi, unda ayollar va bolalar masalasining dolzarbligi va islohotlar natijalarining o'rganilishi, belgilab berilgan ustuvor vazifalar xaqida fikr-muloxazalar bildirilgan.

Tayanch iboralar: tibbiyot, aholi, ona, bola, sog'liqni saqlash, yuqumli kasalliklar, sog'lom turmush tarzi, tibbiy xizmat, aholi salomatligi, anemiya, kandli diabet, gipertoniya.

O'zbekistonda mustaqillikning boshlanishi bilan islohotlar natijasida sog'liqni saqlash tizimi ijobiy natijalarga erishdi va respublikada yuqumli kasalliklarning kamayishi evaziga erta o'lim holatlari sezilarli darajada kamaydi. Co'nggi yillarda profilaktik emlashlar bilan qamrab olish darajasi 95-98 foizni tashkil etmoqda. Yuqumli kasalliklarga qarshi emlash uchun sarflanadigan mablag'lar to'liq davlat budjeti hisobidan qoplanib, emlash qamrovi 99,5 foizga yetkazildi. Natijada, 2017 yil Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan O'zbekiston qizamiq va qizilcha kasalliklaridan xoli hudud deb e'tirof etildi.⁹ Mustaqillikning ilk yillaridayoq mamlakatda sog'lom turmush tarzini targ'ib etish asosiy masalaga aylandiki, bu hozirgi kungacha o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2022 yil 18 mart kuni tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqot o'tkazib, unda 7 ta muhim yo'nalishni ko'rsatib berdi, shulardan 6-yo'nalishda to'xtalib: "Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligi 19 foiz tashqi muhitga, 20 foiz genetik omillarga, foiz sog'liqni saqlashni tashkil etish va 52 foiz turmush tarziga bog'liq. Shu bois oltinchi yo'nalish jamiyatda sog'lom turmush madaniyatini oshirishga qaratilgan¹⁰, – degan fikrlarni bayon etdi.

⁹ [https://yuz.uz//yurtimiz aholisi – 13 turdagi – kasalliklarga-qarshi-rejali-emlanmoqda \(7.05.2022\)](https://yuz.uz//yurtimiz aholisi – 13 turdagi – kasalliklarga-qarshi-rejali-emlanmoqda (7.05.2022))

¹⁰ Халқимиз саломатлиги ҳамма нарсадан устун ва қадрли. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2022 йил 18 март кuni тиббиёт ходимлари билан очиқ мулоқотида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи. <https://xs.uz>

Mazkur maqolada sog'liqni saqlash tizimi tarixiga nazar tashlab, Navoiy viloyati misolida tadqiqot olib borish jarayonida sog'liqni saqlashni tashkil etishning holatlari, ahvoli va tizimda islohotlar jarayonida axoli, xususan, ayollar, bolalarga bo'lgan e'tibor xaqida fikr yuritiladi. Demografik tendensiya, kasalliklar tarkibidagi o'zgarishlar, ekologiya buzilishi, toza ichimlik suvi tanqisligi, Navoiy viloyati markazidan uzoq hududda joylashgan tuman va qishloqlar, ovullarda og'ir sharoitda yashayotgan aholining mavjudligi, tug'ruq yoshidagi ayollar kamqonligining ko'payganligi va natijada aholi o'rtasida turli kasalliklarning rivojlanib borayotganligi va boshqa shunga o'xshash salbiy jihatlarning oldini olish, ularga qarshi kurashish maqsadida 2007 yil fevral oyidan 2008 yil fevral oyigacha O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan o'zaro kelishgan holda Navoiy viloyatida amaliy tadqiqot olib borildi. Tadqiqotning asosiy tarkibiy qismi va maqsadidan kelib chiqib, sog'liqni saqlash vazirligi, Navoiy viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi, boshqa manfaatdor tomonlar va tadqiqot guruhi o'rtasida tadqiqot jarayonida ochiq munozaralar bo'lib o'tdi. Ushbu tadqiqotda aniqlangan, tahlil qilingan va o'rganilgan muammolar quyidagicha umumlashtirildi, ya'ni 2007-2008 yillar-oralig'ida:

- Aholiga, xususan bolalar va ayollarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni takomillashtirish yetarli darajada emaskigi;
- Profilaktika faoliyati hali epidemiologik o'tishga moslashtirilmaganligi;
- Tibbiy yordam epidemiologik o'tishga moslashtirilmaganligi;
- Navoiy viloyatida tuman va viloyat darajasida cuboptimal sog'liqni saqlash xizmatlari yetarli darajada emasligi;
- Uzoq tuman va qishloqlarning, ovullarning mavjudligi va ularga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati va samaradorligining yuqori darajada emasligi;
- Tibbiyot mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi;
- Aholining tibbiy madaniyat darajasi ko'rsatgichi hali ham past darajada ekanligi, O'zbekistonda, xususan, Navoiy viloyatida 45 yoshdan oshgan aholining ulushi 20,1% ga, 2025 yilga kelib esa 24,0% ga oshishi prognoz qilindi.

Tadqiqot olib borgan yapon tadqiqotchilarining fikricha, aholining qarishi kasallik tuzilishining o'zgarishiga olib keladi. Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning tarqalishi yuqori bo'lganligi sababli sog'liqni saqlashga ko'proq mablag' sarflanadi. Shunga ko'ra, kelgusida sog'liqni saqlash tizimi xarajatlari diqqat bilan prognoz qilinishi kerak¹¹, degan xulosaga kelindi.

O'zbekistonda aholi jon boshiga sog'liqni saqlashga sarflanadigan umumiy xarajatlar 2012 yilda 1,95 baravar, 2017 yilda 3,2 baravar va 2022 yilda 2007 yilga nisbatan 4,78 baravar ko'p bo'ladi. Davlat sog'liqni saqlash xarajatlari 2012 yilda 2,03 marta, 2017

¹¹Министерство здравоохранения Республики Узбекистан, Японское агентство международного сотрудничества (JICA) "Реформы услуг здравоохранения в Навоийской области Республики Узбекистан". Февраль. 2008. INTERNATIONAL TECHNO CENTER CO. Ltd. KRL INTERNATIONAL Corp.

yilda 3,42 marta va 2022 yilda 5,18 marta oshdi¹². Ya'ni, bu ko'rsatkichlar 2007–2008-yillardagi darajaga nisbatan oshishi aytib o'tildi. O'sha vaqtda xususiy xarajatlar 21 ming 226 so'mni tashkil etib, bu 2012-yilda 1,87 baravar, 2017-yilda 3 baravar va 2022-yilda 4,39 baravar ko'payishi tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlab o'tilgan. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan bir qancha qaror va Farmonlarning qabul qilinib, soha rivoji uchun salomoqli mablag'larning ajratilishi sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan e'tiborning yaqqol natijasidir.

2021-yil 5-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6221-sonli "Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi Farmoniga binoan sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirishga e'tibor qaratilganligi muhim ahamiyat kasb etdi. Kuzatishlardan kelib chikib, Yaponiya xalqaro agentligi Navoiy viloyatida sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirishning asosiy strategik yo'nalishlarni ko'rsatib bergan edi.

1 – strategik yo'nalish – sohada sog'liqni saqlash xizmatlarining samarali va oqilona tizimini yaratish;

2 – strategik yo'nalish – chekka hududlarda sog'liqni saqlash xizmatlarini ko'rsatishda qiyinchiliklarni kamaytirish;

3 – strategik yo'nalish – shahar atrofi hududlarida ikkilamchi tibbiy yordamni kengaytirish;

4 – strategik yo'nalish – sog'liqni saqlash muassasasi darajasiga muvofiq diagnostika ko'nikmalarini takomillashtirish;

5 – strategik yo'nalish – profilaktika faoliyatini optimallashtirish;

Farzand ko'rish yoshidagi ayollar orasida gipertoniya, diabet va anemiyani erta tashhislash va nazorat qilishni ta'kidlash kerak. Ushbu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun patronaj faoliyati kelajakda tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabga muvofiq o'zgartirilishi va aholining, ayniksa, tug'ish yoshidagi ayollar va bolalar kasalliklarini oldini olishning ahamiyati to'g'risida xabardorligi oshirilishi zarur.

Xullas, yuqorida ko'rsatib o'tilgan Prezident qaror va Farmonlari doirasida belgilangan chora-tadbirlar va yaponiyalik hamkorlar tomonidan ko'rsatib berilgan strategik yo'nalishlar yordamida aholi o'rtasida kasalliklar va o'limning asosiy sabablari bo'lgan kasalliklarning 5 ta toifasi ustuvor bo'lishi, bularning eng asosiysi ayollar va bolalar kasalliklari va ularga qarshi kurashish sog'liqni saqlash sohasining asosiy vazifasiga aylanishi alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

¹² O'sha manba.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Кучли ва самарали тиббиёт тизимини шакллантириш – халқпарвар давлатнинг энг асосий вазифаси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг соғлиқни сақлаш соҳаси вакиллари билан очик мулоқот шаклидаги учрашувда сўзлаган нутқ. // Халқ сўзи. 2022 йил 19 март.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.
3. Каримов И.А. Ўзбекистонда она ва бола саломатлигини муҳофаза қилишнинг миллий модели. “Соғлом она – соғлом бола” мавзуидаги халқаро симпозиум очилишида сўзланган нутқ. // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. 2011 йил, 2 декабрь.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 438 б.
5. [https://yuz.uz/yurtimiz_aholisi – 13 turdagi – kasalliklarga-qarshi-rejali-emlanmoqda](https://yuz.uz/yurtimiz_aholisi_-_13_turdagi_-_kasalliklarga-qarshi-rejali-emlanmoqda) (7.05.2022)
6. Халқимиз саломатлиги ҳамма нарсадан устун ва қадрли. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2022 йил 18 март куни тиббиёт ходимлари билан очик мулоқотида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи. <https://xs.uz>
7. Министерство здравоохранения Республики Узбекистан, Японское агенство международного сотрудничества (JICA) “Реформы услуг здравоохранения в Навоийской области Республики Узбекистан”. Февраль. 2008. INTERNATIONAL TECHNO CENTER CO. Ltd. KRL INTERNATIONAL Corp.